

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISH USULLARI

*Toshquvvatov Xayrulla*

**Annotatsiya.** Bu maqolada frazeologik birliklarni soʻzdan farqi hamda ingliz va oʻzbek frazeologizmlarining qiyosiy taqdiqi, ularni analog va ekvivalent tarjima, tasvirlash, kalka, antonim, kombinatsiyalash orqali tarjima qilish usullari koʻrib chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** frazeologiya, nutq birliklari, ekvivalent, analog, kalka, kombinatsiya, milliylik, tana aʼzolari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются различия между фразеологизмами и словами, а также сопоставительные исследования английских и узбекских фразеологизмов, способы перевода фразеологизмов с помощью аналогового и эквивалентного перевода, описательного, калькового, антонимического и комбинированного подходов.

**Ключевые слова:** фразеология, речевые единицы, эквивалент, аналог, калька, комбинация, национальность, части тела.

**Abstract.** The article deals with the differences between phraseological units and words, as well as comparative studies of english and uzbek PhUs, methods of translating phraseological units by means of analog and equivalent translation, description, calque, antonym and combination approaches.

**Key words:** phraseology, speech units, equivalent, analogue, calque, combination, nationality, body parts.

Til ilmida esa frazeologizm tuzilishiga koʻra soʻz birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan maʼno anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lugʻaviy birlik boʻlib, frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologik chatishma, frazema, ibora, idioma kabi terminlar ostida oʻrganilib kelinadi. Shunday qilib, frazeologizmlar nutq jarayonida tayyor holda qoʻllaniladigan, semantik jihatidan soʻzga muqobil, struktura va maʼno jihatidan birikma va gapga teng, komponentlaridan birining yoki umumiy birikmaning koʻchma maʼnosi asosiga qurilgan turgʻun birikmalardir. (Mamatov, 2020)

1979-yilda frazeologik birliklarga R.Ginzburg va uning hamkasblari tomonidan quyidagicha taʼrif berildi: “Frazeologik birliklar nutqda erkin yasalib boʻlmaydigan, lekin tayyor birlik sifatida qoʻllaniladigan motivsiz soʻz turkumlaridir”.

Gläser, oʻz navbatida, frazeologik birlikka quyidagicha taʼrif beradi: "qoʻllanishda koʻp yoki kamroq leksiklashtirilgan, takrorlanadigan bileksemik yoki polileksemik soʻz birikmasi, sintaktik va semantik barqarorlikka ega, idiomatizatsiyalangan boʻlishi, konnotatsiyon maʼnoga ega boʻlishi mumkin”.

Maykl Makkarti va Felisiti O'Dell o'zlarining "Ingliz tilidagi iboralar" kitobida "idioma" atamasidan foydalanadilar va idiomalar alohida so'zlarni ko'rib chiqishda darhol aniq bo'lmaydigan ma'noga ega bo'lgan sobit iboralar ekanligini yozadilar.

Xokketning ta'kidlashicha, uning ma'nosi kompozitsion bo'lmagan iboradir, ya'ni butunning ma'nosini qismlarning ma'nolaridan to'liq chiqarib bo'lmaydi.

Antrushina, O.V, Afanasyeva, N.N. Morozovaning "Лексикология английского языка" kitobida keltirilishicha, frazeologik birliklar va erkin so'z turkumlarini farqlashning ikkita asosiy mezon mavjud: semantik va strukturaviy.

A: I'm told they're inviting more American professors to this university. Isn't it rather carrying coals to Newcastle?

B. This cargo ship is carrying coal to Liverpool.

Diqqatni tortadigan birinchi narsa - bir xil tarkibiy qismlardan tashkil topgan ikkita so'z turkumidagi semantik farq. Ikkinchi gapda carrying coal (ko'mir olib ketayotgan) erkin so'z birikmasi o'zining lug'aviy ma'nosida qo'llanilgan. Birinchi kontekstning ma'nosi ko'mir bilan yoki uni tashish bilan hech qanday aloqasi yo'qligi va butun so'z birikmasining ma'nosi butunlay yangi va tarkibiy qismlarning lug'aviy ma'nosidan ancha yiroqdir.

Strukturaviy o'zgarmaslik frazeologizmning muhim belgisidir, lekin biz ko'rib turganimizdek, ularning ba'zilar boshqalar darajasiga qaraganda kamroq. Avvalo, almashtirishda cheklash. Qoida tariqasida, hech qanday so'z frazeologik birlikning istalgan mazmunli komponenti ma'nosini buzmasdan o'rniga qo'yilmaydi. Masalan, "to carry coals to London" so'z birikmasi "To carry coals to Newcastle" iborasidagi ko'chma ma'noni bermaydi. Shu bilan birga, erkin so'z birikmalarida almashtirish hech qanday xavf tug'dirmaydi va jiddiy oqibatlariga olib kelmaydi. The cargo ship is carrying coal to London jumlasidagi har bir so'z boshqa so'z bilan almashtirilishi mumkin: The ship/vessel/boat carries/transport/takes/brings coal to (any port).

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning quyidagi turlari mavjud:

1. Ekvivalent usul. Tarjimada qo'llanilgan frazeologik birliklarning ma'nosi va ko'chmaligi mos keladi. Misol uchun, be as strong as a horse – otdek bo'lish;

**Go in (at) one ear and out (at) the other - bir qulog'idan kirib boshqasidan chiqib ketmoq.** Agar ma'lumot bir quloqdan kirib, ikkinchi qulog'idan chiqsa, uni eshitishingiz bilanoq unutasiz.

*I don't know why I tell her anything. It just goes in one ear and out the other.*  
(Longman Dictionary)

*Nega unga hech narsa demasligimni bilmayman. Bir qulog'idan kirib, ikkinchisidan chiqib ketadi.*

2. Analog usul. Asl nusxada va tarjima qilinayotgan tillarda tarjima qilingan frazeologik birliklarning mazmuni va konteksti saqlanib qolganiga qaramay obrazliklik va tasviriylik ushbu usulni qo'llash orqali o'zgartiriladi. Masalan, a drop in the bucket – dengizdan bir tomchi

Ingliz tilidagi **make up your mind** iborasi nima qilishni yoki tanlashni hal qilish degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilidagi **bir to'xtamga kelmoq** iborasi ingliz tilidagi ushbu iboraning ma'nosini beradi.

*"The animals listened first to Napoleon, then to Snowball, and could not make up their minds which was right; indeed, they always found themselves in agreement with the one who was speaking at the moment." (George Orwell, Animal farm, b43)*

*Hayvonlar avval Napoleonni, keyin Snoubolni tinglashdi va qaysi biri haq ekanligini anglay olishmadi; Darhaqiqat, ular har doim ayni vaqtda kim gapirayotgan bo'lsa o'shaning fikriga qo'shilishga odatlangan. (X.T.L.)*

3. Tasviriy usul. Ayrim frazeologik birliklar uchun tarjima qilinayotgan tilda ekvivalent yoki analogni topish juda qiyin. Bunday holda, tarjima qilingan frazeologik birlikning tavsifini topish muhimdir. Masalan:

To fiddle while Rome burns - mamlakatning og'ir kunida kerak bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanish

**Headstrong - o'z bilganidan qolmaydigan, ko'ngliga kelganini qiladigan, boshqaning gapiga kirmaydigan.** Boshqalarni fikriga e'tibor bermasdan o'zi xohlagan narsani qilishga qat'iy qaror qilish.

*"Lizzy is only headstrong in such matters as these. In everything else she is as good-natured a girl as ever lived. I will go directly to Mr. Bennet, and we shall very soon settle it with her, I am sure." (Jane Austen, Pride and Prejudice, b79)*

*Lizzi bu kabi masalalarda faqat o'z bilganini qiladi. Har bir holatda u har doimgidek xushmuomala, yaxshi xarakterga ega qiz. Men to'g'ri janob Bennetning oldiga boraman va aminmanki, biz Lizzi bilan bu masalani tez orada hal qilamiz.*

4. Antonim usuli. Bu usul asl tilda salbiy birlikni ijobiy yoki aksicha holatda taqdim qilishni o'z ichiga oladi:

Don't count your chickens before they are hatched – Jo'jani kuzda sanaymiz.

5. Kalka metodi. Bu usul yordamida frazeologik birlikning obrazlilikini saqlab qolish muhimdir. Masalan, the owner of the honey is the bee – Asalning egasi aridir.

**Keep your hands off - qo'lini tekkizmaslik.** Birovga yoki biror narsaga tegmaslik.

*"Keep your hands off the lever," snapped the elevator boy. "I beg your pardon," said Mr. McKee with dignity, "I didn't know I was touching it." (Scott Fitzgerald, Great Gatsby, b31)*

*Qo'llaringizni tutqichdan oling", dedi liftchi bola jahli chiqqan holatda. - Kechirasiz, - dedi janob Makki hurmat bilan, - men unga tegib turganimni bilmagandim.*

6. Kombinatsiyalash usuli. Ushbu usul odatda tarjima qilinayotgan tildagi analoglardan hech biri asl kontekst tilidagi ma'noni yetkazib bera olmayotganida yoki boshqa zamon va makon obrazi yaratilganda ishlatiladi. Ushbu holatda avval kalka tarjima, keyin tavsifiy tarjima qo'llaniladi. Masalan: To carry coal to

Newcastle - Nyukasla ko'mir olib borish. Bu ko'mir ko'p bo'lgan joyga olib borishni anglatadi.

**Ellik og'iz – a bag of wind, a big mouth.** Juda ko'p gapirmoq.

*Menga ellik og'iz gapdan to'rt ellik xat afzal. (A. Muhiddin, Xarakteristika)*

*I prefer four-fifty letters to fifty words.* It means the person prefers a brief letter to a long speech. (fifty words = windbag, four-fifty = brief)

Frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning ekvivalent, analog, tasviriy, antonim, kalka va kombinatsiyalash usullari bor. Har bir xalqning hayot tarzi, yillar davomida to'plagan tajribasi, o'ziga xos madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari frazeologik birliklarda aks etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Антрушина Г, Афанасьева О, Морозова Н. Лексикология английского языка, Дрофа, 2004 г.
2. Jafarova L. Challenges in Translating Phraseological Units. Theory and Practice in Language Studies, Vol. 6, No. 7, pp. 1341-1346, July 2016 DOI: <http://dx.doi.org/10.17507/tpls.0607.02>
3. Mamatov A., "Frazeologik birliklarning semantik – tematik va uslubiy tahlili" o'quv qo'llanma. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2020 – 136 b.